



THE ARTISTIC INTERPRETATION OF A WOMAN'S FATE IN AKROM USMON'S STORY "FROM DEATH TO LIFE"

Mokhinur Asomjonova

*3rd-year student of the Dari-English group
Higher School of Iranian Studies and Afghan Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Moxinurkim3@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan*

N. Kabirova

*Associate Professor of the Higher School of Iranian Studies and Afghan Studies, PhD
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: artistic interpretation, Afghan literature, social environment, inner experiences.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article analyzes the artistic interpretation of women's fate in the works of one of the prominent representatives of modern Afghan literature, Akrom Usmon. The study examines the writer's work "Az marg to zendagi" ("From Death to Life") as the main source and provides a scholarly analysis of how the life destinies, inner experiences, and social roles of female characters are artistically portrayed in the work. Through the depiction of female characters, the author raises important social and moral issues existing in society. The article also reveals the significance of the writer's role in addressing important social and spiritual problems through the images of women.

AKROM USMON "O'LIMDAN TIRIKLIKKA" HIKOYASIDA AYOL QISMATINING BADIY TALQINI

Moxinur Asomjonova

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi
3-kurs dariy-ingliz guruhi talabasi
Moxinurkim3@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston*

N. Kabirova

*TDSHU, “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi dotsenti, PhD
Toshkent, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: badiiy talqin, afg‘on adabiyoti, ijtimoiy muhit, ruhiy kechinmalar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Afg‘oniston zamonaviy adabiyotining taniqli vakillaridan biri bo‘lgan Akrom Usmon ijodida ayollar qismatining badiiy talqini masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuvchining “Az marg to zendagi” (“O‘limdan tiriklikka”) asari asosiy manba sifatida o‘rganilib, unda ayol obrazlarining hayotiy taqdiri, ruhiy kechinmalari hamda jamiyatdagi o‘rni badiiy jihatdan yoritilganligi ilmiy tahlil qilinadi. Yozuvchining ayol obrazlari orqali jamiyatdagi muhim ijtimoiy va ma’naviy masalalarni ko‘tarib chiqishdagi o‘rni va ahamiyati ochib beriladi.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЖЕНСКОЙ СУДЬБЫ В РАССКАЗЕ АКРОМА УСМОНА «ОТ СМЕРТИ К ЖИЗНИ»

Мохинур Асомджонова

Студентка 3 курса (дари-английская группа)

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

Moxinurkim3@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Н. Кабирова

Ташкентский государственный университет востоковедения, доцент

Высшей школы иранистики и афганистики, PhD

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: художественная интерпретация, афганская литература, социальная среда, духовные переживания.

Аннотация: В данной статье анализируется художественная интерпретация судьбы женщин в творчестве одного из известных представителей современной афганской литературы — Акром Усмон. В исследовании произведение писателя «Az marg to zendagi» («От смерти к жизни») рассматривается как основной источник, и проводится научный анализ художественного отражения жизненных судеб, духовных переживаний и социального положения женских образов. Через женские образы автор поднимает важные социальные и нравственные проблемы общества. Также раскрывается значение и роль писателя в освещении важных социальных и духовных вопросов посредством образов женщин.

Kirish. Adabiyot inson hayoti, uning ruhiy kechinmalari va jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarni badiiy aks ettiruvchi muhim san'at turidir. Badiiy asarda inson ruhiyati, uning ichki dunyosi va hayotiy tajribalari turli obrazlar orqali ifodalanadi. Ayniqsa, ayol qismati masalasi jahon adabiyotida ham, Sharq adabiyotida ham muhim mavzulardan biri sifatida talqin qilinadi. Chunki ayol obrazlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, insoniy qadriyatlar, sabr-toqat va matonat kabi tushunchalar chuqurroq ochib beriladi. Adabiyotshunos olimlar ta'kidlaganidek, badiiy asarning asosiy vazifalaridan biri inson qalbini tasvirlashdir. Jumladan, Abdurauf Fitrat adabiyot haqida shunday yozadi: “Adabiyot – fikr va tuyg‘ularimizdagi to‘lqinlarni so‘zlar yordamida tasvir qilib, boshqalarda ham shu tuyg‘ularni uyg‘otishdir”. Demak, badiiy asarda inson ruhiyati tasviri asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

Zamonaviy dariyazabon adabiyotida ham inson ruhiyati, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar hamda ayol taqdiri masalasi keng yoritilgan. Bu borada Akrom Usmon ijodi alohida e'tiborga loyiqdir. Yozuvchi o‘z asarlarida inson ruhiyati, ayolning jamiyatdagi o‘rni hamda uning murakkab hayotiy taqdirini chuqur badiiy talqin qiladi.

Xususan, yozuvchining “Az marg to zendagi” (“O‘limdan tiriklikka”) asari ayol taqdiri, insoniy matonat hamda hayot uchun kurash g‘oyalarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari yozuvchining “Sang-e sabr” (Sabr toshi), “Qissa-ye zan” (Ayol hikoyasi), va “Shab-e tanhāyi” (Yolg‘izlik kechasi) hikoyalarda ham insonning nozik ichki kechinmalari katta mahorat bilan tilga olgan. Ayniqsa ulardan “Sang-e sabr” hikoyasida inson ruhiy iztiroblari va sabr motivi markaziy o‘rinni egallaydi. Asarda qahramon hayotning og‘ir sinovlariga duch keladi va bu jarayonda insonning sabr-toqati, ruhiy chidamliligi badiiy talqin qilinadi. Hikoya g‘oyaviy jihatdan “Az marg to zendagi” asariga yaqin, chunki har ikki asarda ham inson og‘ir hayotiy sinovlardan o‘tib, yangi hayot sari intiladi. “Qissa-ye zan” hikoyasi bo‘lsa ayol qismati, uning jamiyatdagi o‘rni va hayotiy kurashi tasvirlanadi. Asarda ayolning murakkab hayoti, jamiyat bosimi va ruhiy iztiroblari badiiy talqin qilinadi. Shu jihatdan bu hikoya “Az marg to zendagi” asarining mavzusiga eng yaqin hikoyalardan biri hisoblanadi.

Akrom Usmon zamonaviy afg‘on nasrining yetakchi vakillaridan biri bo‘lib, uning asarlarida inson ruhiyati, ijtimoiy muammolar hamda shaxs taqdiri muhim o‘rin tutadi. Yozuvchi asarlarining asosiy xususiyatlaridan biri – qahramonlarning ichki ruhiy olamini chuqur tasvirlashdir. Adabiyotshunos olim T. Jo‘raev inson ruhiyatining badiiy tasviri haqida shunday fikr bildirad “ Inson ongidagi jarayonlar, ichki kechinmalar va hissiy holatlar badiiy asarda turli psixologik vositalar orqali ifodalanadi”. Akrom Usmon asarlarida ham ana shunday psixologik tasvir usullari keng qo‘llanadi. Yozuvchi qahramonlarning ichki kechinmalarini monolog, dialog va tasviriy detallar orqali ochib

beradi. Ayniqsa, ayol obrazlari orqali inson ruhiyatidagi murakkab holatlar va hayotiy sinovlar tasvirlanadi.

Akrom Usmon o‘z asarlarida inson hayotining murakkab jihatlarini, ayniqsa ayol taqdirini chuqur badiiy talqin qilishga alohida e‘tibor qaratadi. Uning “Az marg to zendagi” asari ham shu jihatdan e‘tiborga molik bo‘lib, unda inson hayotidagi og‘ir sinovlar, ruhiy iztiroblar va hayot uchun kurash masalasi badiiy ifodasini topgan. Asarning nomi – “O‘limdan tiriklikka” – o‘zidayoq ramziy ma’noga ega. Bu ibora inson hayotidagi og‘ir sinovlardan o‘tib, yangi hayot sari intilish g‘oyasini ifodalaydi. Yozuvchi asarda inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochib berishga harakat qiladi. Ayniqsa, ayol qahramonning ruhiy kechinmalari, uning hayot bilan kurashi o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi. Adabiyotshunos M. Xolbekov badiiy asarda ruhiy tasvir haqida shunday yozadi “Insonning ichki dunyosini tasvirlash badiiy asarning muhim jihatlaridan biri bo‘lib, bu jarayon turli psixologik vositalar yordamida amalga oshiriladi.” Mazkur asarda ham ayol qahramonning ruhiy kechinmalari, qo‘rquv va umidlari, hayotga bo‘lgan intilishi badiiy tasvir vositalari orqali ochib beriladi.

Asarning dastlabki sahifalaridayoq muallif o‘quvchini g‘amgin, ammo sirli muhitga olib kiradi. Voqealar tashqi dramatism orqali emas, balki qahramonning ichki ruhiy kechinmalari orqali rivojlanadi. Muallif tasvirlagan muhit o‘quvchini asta-sekin qahramon hayotidagi murakkab voqealar sari yetaklaydi.

Asarning ayrim parchalarida qahramonning ichki iztiroblari quyidagicha ifodalanadi:

«گاهی زندگی انسان را با چنان آزمون‌هایی روبه‌رو می‌سازد که گویی میان دو جهان، میان امید و ناامیدی، سرگردان»
«... می‌ماند. اما در ژرفای دل همیشه جرقه‌ای پنهان است؛ جرقه‌ای که نامش میل به زنده‌گی است»

“Hayot ba’zan insonni shunday sinovlarga duchor qiladiki, u o‘zini go‘yo ikki olam – umid va umidsizlik o‘rtasida qolib ketgandek his qiladi. Ammo qalbning eng chuqur tubida baribir bir uchqun yashirinadi – bu yashash istagining uchquni edi.”

Mazkur parchada yozuvchi inson ruhiyatidagi ikki qarama-qarshi holat – umid va umidsizlik o‘rtasidagi kurashni tasvirlaydi. Ayniqsa, ayol qahramonning ruhiy holati shu qarama-qarshilik orqali ochib beriladi. Asarda tabiat tasvirlari ham muhim badiiy vosita sifatida qo‘llanadi. Muallif tabiat manzaralari orqali qahramonning ichki holatini ifodalashga erishadi. Masalan, bir epizodda qahramonning ruhiy holati quyidagicha tasvirlanadi:

«شب آرام و خاموش بود. ستاره‌ها در آسمان می‌درخشیدند، اما در دل او توفانی برپا بود»

“Tun jimjit edi. Osmonda yulduzlar sokin porlab turardi. Ammo uning qalbida bo‘ronlar qo‘zg‘algan edi.”

Bu tasvir orqali yozuvchi tashqi sokinlik bilan ichki iztirob o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘rsatadi. Asarning yana bir muhim jihati – unda ayol qahramonning hayotiy kurashi tasviridir. Yozuvchi ayol obrazini faqatgina jabrlanuvchi sifatida emas, balki hayot uchun kurashuvchi, matonatli shaxs sifatida tasvirlaydi. Bu esa asarning g‘oyaviy mazmunini yanada boyitadi. Asarda qahramonning ichki

monologlari ham muhim o‘rin tutadi. Bu monologlar orqali o‘quvchi qahramonning ruhiy dunyosiga yanada chuqurroq kirib boradi. Masalan, qahramon o‘z hayoti haqida shunday fikr yuritadi:

«من نمی‌خواهم از زندگی بگریزم، اما گاهی چنین احساس می‌کنم که زندگی از من می‌گریزد.»

“Men hayotdan qochmoqchi emasman. Faqat ba’zan hayotning o‘zi mendan qochayotgandek tuyuladi...”

Mazkur fikr qahramonning ruhiy holatini juda nozik tarzda ifodalaydi. Shu orqali yozuvchi inson ruhiyatidagi umidsizlik va umid o‘rtasidagi kurashni ko‘rsatadi. Asarning dramatik kuchi ham aynan shu psixologik tasvirlarda namoyon bo‘ladi. Muallif voqealarni keskin dramatik sahnalar orqali emas, balki qahramonning ichki dunyosidagi jarayonlar orqali rivojlantiradi. Bu esa asarning badiiy ta’sirchanligini oshiradi. Yozuvchi voqealar rivojida ayrim sirli unsurlarni ham qo‘llaydi. Ayrim epizodlar o‘quvchini savolga soladi: qahramonning hayoti qanday davom etadi? U bu sinovlardan qanday chiqib ketadi? Shu savollar asarning oxirigacha o‘quvchini o‘ziga tortib turadi. Asarning eng qiziqarli jihati shundaki, muallif voqealarning barcha sirlarini darhol ochib bermaydi. Ba’zi muhim tafsilotlar asta-sekin ochiladi. Natijada o‘quvchi voqealarning keyingi rivojini bilishga qiziqib qoladi. Shu jihatdan “Az marg to zendagi” nafaqat ijtimoiy, balki falsafiy mazmunga ham ega asardir. Unda inson hayoti, taqdir va yashash ma’nosi haqidagi muhim savollar ko‘tarilgan. Asar yakuniga yaqinlashar ekan, o‘quvchi qahramon taqdiri haqida turli taxminlar qila boshlaydi. Ammo yozuvchi voqealarni shunday tarzda rivojlantiradiki, oxirgi sahifalargacha qahramon taqdiri sirli bo‘lib qoladi. Shu sababli “Az marg to zendagi” asari o‘quvchini nafaqat o‘yga toldiradi, balki uni voqealar rivojini bilish uchun asarni oxirigacha o‘qishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, Akrom Usmonning “Az marg to zendagi” hikoyasi zamonaviy afg‘on nasrining muhim namunalariidan biri hisoblanadi. Asarda ayol qismati, inson ruhiyati hamda hayot uchun kurash masalasi chuqur badiiy talqin qilingan. Yozuvchi qahramonning ruhiy iztiroblarini tasvirlash orqali inson hayotining murakkabligini, umid va umidsizlik o‘rtasidagi kurashni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, asarda hayotga bo‘lgan ishonch va yashash istagi g‘oyasi ilgari suriladi. Mazkur asar o‘zining psixologik tasvirlari, falsafiy mazmuni va badiiy uslubi bilan o‘quvchini chuqur o‘yga chorlaydi. Eng muhimi, asar voqealari o‘quvchini oxirigacha o‘ziga tortib turadigan sirli intriga bilan boyitilgan. Akrom Usmon ijodi zamonaviy dariyzabon adabiyotida muhim o‘rin egallaydi. Uning asarlarida inson ruhiyati, ayol qismati hamda jamiyatdagi ijtimoiy muammolar chuqur badiiy talqin qilingan. “Az marg to zendagi” asari yozuvchining ayol obrazlarini yaratishdagi badiiy mahoratini yaqqol namoyon etadi. Hikoyada ayol qahramonning hayotiy kurashi, ruhiy iztiroblari va jamiyatdagi o‘rni chuqur psixologik tahlil orqali ochib berish bilan birga, ayollarning murakkab hayot yo‘li, ijtimoiy muhit ta’siri, urush va ijtimoiy muammolar sharoitida kechayotgan taqdir sinovlari hamda ularning sabr-toqati, matonati va hayot uchun olib borayotgan kurashi badiiy vositalar orqali ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. اکرم عثمان از مرگ تا زندگی ۲۰۱۰ کابل
2. Jo'raev T. Ong oqimi va tasviriylik. – T.: Fan, 1994.
3. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari. – T.: Mumtoz so'z, 2014.
4. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – T.: 2020. O'qituvchi.
5. Кабирова, Н. (2025). ЗАМОНАВИЙ ДАРИЙ ҲИКОЯЧИЛИГИНИНГ ТАРАҚҚИЁТИ ТАРИХИ. XXI Asr: Fan va ta'lim masalalari (XXI век: Вопросы науки и образования), 1, 493-504.
6. Кахрамоновна, К. N. (2024). AFG 'ONISTON DARIYZABON YOZUVCHISI RAHNAVARD ZARYOB HIKOYALARINING QIYOSIY TAHLILI. Endless light in science, (31 октябрь 13), 3-5.